70

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

| **“TASDIQLAYMAN”** | **“KELISHILDI”** |
| --- | --- |
| G.SH.Rixsiyeva | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| ____________ | ____________ |
| 2020 yil “28” 08 | 2020 yil “28” 08 |

Ro‘yxatga olindi: MD-5A120701
2020 yil “28” 08

# BADIIY MATN STILISTIKASI

## FAN DASTURI

| | | |
| --- | --- | --- |
| **Bilim sohasi:** | 100000 | – Gumanitar |
| **Ta’lim sohasi:** | 120000 | – Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 5A120701 | – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik |

**Toshkent – 2020**

| | |
|---|---|
| | 10.Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2004.<br>11.Содиқов Қ. Қадимги турк фалсафаси. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2009.<br><br>**Axborot manbalari**<br><br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.turfanforschung.com<br>4. www.tonyukuk.com |
| **7.** | Fan dasturi Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishlari bo’yicha O’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “28” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “29” 08 dagi 452 - sonli buyrug’i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Hasanova Sh. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori<br><br>Eshmuhamedova M. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |

| | |
|---|---|
| | - mumtoz matnlarni tahlil etish asnosida mavzuga oid material to'play olishi;<br>- sharq tillaridagi mumtoz asarlarni o'qish va ularni tahlil etish orqali badiiy matnning lingvo-poetik xususiyatlari, badiiy matnni ona tiliga o'girish va talqin etishdagi o'ziga xosliklarni anglash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-studylar;<br>• seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.<br>2. Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. Монография. Тошкент, 2010.<br>3. Содиқов Қ. Эски туркий ҳужжатлар: матн интерпретацияси ва стилистикаси. Монография. Тошкент, 2015.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2016.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.<br>7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.<br>8. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2002.<br>9. Болтабоев Н., Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2006. |



| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS -Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| 5ABMS222 | 2020-2021 | 2 | 2 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O'zbek | | 2 | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Badiiy matn stilistikasi** | 30 | 30 | 60 |
| **2.** | **I. Fanning mazmuni**<br>Fanni o'qitishdan **maqsad** – talabalarga o'rganilayotgan sharq tilining ilmiy-nazariy masalalari, Sharq tillaridagi klassik matnlarni o'rganish va ularni talqin etish bilan bog'liq masalalarni o'rgatishdir.<br>Fanning **vazifasi** – magistratura talabalariga sharq tillaridagi matnlarni, adabiy asarlarni o'rganish, ularni talqin va tahlil qilish, sharq tillaridagi klassik asarlarni o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni hal etish masalalarini o'rgatishdan iboratdir.<br>**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**1-mavzu. "Badiiy matn stilistikasi" fanining mazmuni, predmeti va metodi**<br>Kirish. "Badiiy matn stilistikasi" fanining maqsad va vazifalari. Fanning o'rganish doirasi va yo'nalishlari. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi.<br>**2-mavzu. Mumtoz sharq tilidagi badiiy matnni talqin qilish masalalari**<br>Mumtoz sharq tilidagi badiiy matnni o'rganish va uni talqin qilishning zamonaviy metodlari. Matn tushunchasi. Mumtoz sharq tilidagi matnni o'qish va uni o'zbek tiliga o'girish masalalari. "Talqin", "interpretatsiya", "tarjima", "o'girma", "tahlil" tushunchalari.<br>**3-mavzu. Matn va uning uslubi masalasi**<br>Uslublar va ularning turlari: og'zaki va yozma uslublar. Badiiy uslub, uning tarixi va muhim belgilari. Rasmiy uslub, uning tarixi va muhim belgilari. Ilmiy uslub, uning tarixi va muhim belgilari. Ilmiy uslub va matn ilmiyligini belgilovchi bosh omillar. Ilmiy matnda terminologiya.<br>**4-mavzu. Kalom va uning turlari**<br>Til, nutq va kalom tushunchalari. Lug'at va kalima. Lafz va ma'no.<br>Badiiy matnda so'z va uning o'rni. | | | |

**5-mavzu. Nasr. Nasrning ichki tuzilishi**

"Nasr" tushunchasi va nasr turlari Saj'ning qofiyadan farqi.

Matn tuzish an'anasining shakllanishi va badiiy takomili. Matnda qo'llangan badiiy tasvir vositalari. Ularning matn badiiyligini ta'minlashdagi o'rni.

Steriotip birliklar va ularning badiiy matndagi o'rni. Steriotip birliklarning shakllari.

Parallelizmlar va ularning turlari. Matn badiiyligini ta'minlashda, matn ta'sirini oshirishda parallelizmlarning o'rni.

Nasrda bitilgan badiiy matn va uning komponentlari.

Badiiy matnda morfologik birliklar va ularning tanlanishi masalasi. Ism va unga oid kategoriyalar va uning matnda berilishi. Sifat va uning badiiy matndagi o'rni. Son va uning badiiy matndagi o'rni. Sana va uning badiiy matndagi o'rni. Badiiy matnlarda ta'rix va uning berilishi. Numirativlar. Fe'l va uning badiiy matndagi o'rni. Fe'llarda kpma'nolilik va ularning talqini masalasi. Ko'makchilar.

Badiiy matnda jumla qurilishi. Matn badiiyligini ta'minlashda jumla qurilishining ahamiyati.

Frazeologizmlar va ularning matndagi o'rni. Frazeologizmlarni lingvistik talqin qilish.

**6-mavzu. Nazm. Qofiya. Badi'**

Nazmda qofiya va vazn. Bayt va uning qismlari. Nazmning shakliy turlari: qasida va uning qismlari. G'azal va uning qismlari. Musammat va uning turlari. Mustazod, rubo'iy, tuyuq, qit'a. Tarkiband. Tarji'band, fard, masnaviy. Nazmning mazmun turlari: hamdiyya, na't, madhiya, hajviya, marsiya, faxriya, munozara, ta'rix, chiston, muammo.

Vazn tushunchasi. Vazn turlari. Klassik vaznlar.

Qofi va uning mohiyati. Qofiya nazariyalari. Qofiya tarkibi. Raviy, vasl, xuruj, mazid, niyira, ta'sis, daxil, qay, ridf. Tavjih, majro, ishbo', hizv, nifoz. Qofiya turlari. Kalom go'zalliklari. Zotiy go'zalliklar. Oriziy go'zalliklar. Balog'at va fasohat. Ma'oniy ilmi. Bayon ilmi. Badi' ilmi. San'atlar, badiiy vositalar. Lafziy san'atlar. Ma'noviy san'atlar. Lafzu ma'no san'atlari. Ayblar.

**7-mavzu. Mumtoz badiiy matnda qo'llangan atamalar va ularning sharhi**

Tilshunoslikka oid tushuncha va atamalar. Fonetika va grafikaga oid atamalar, ularning ilmiy sharhi; leksika va leksikologiyaga oid atamalar, morfologiyaga oid atamalar, sintaksisga oid atamalar va ularning ilmiy sharhi.

Qur'onshunoslikka oid atamalar. Qur'onga oid atamalar, qiroatga oid atamalar, tafsirlarga oid atamalar va ularning ilmiy sharhi.

Hadisshunoslikka oid atamalar. Siyratga oid atamalar, mazhablarga oid atamalar, hadislarning turlariga oid atamalar, muhaddislar va ularning toifalariga oid atamalar, ularning ilmiy sharhi.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo 'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**



Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'rta asrlarda yaratilgan sarf qoidalaridan namunalar.
2. O'rta asrlarda yaratilgan nahv qoidalaridan namunalar.
3. O'rta asrlarda yaratilgan lug'atshunoslikka oid asarlardan misollar.
4. O'rta asrlarda yaratilgan qur'onshunoslik ilmiga oid asarlardan namunalar.
5. O'rta asrlarda yaratilgan balog'at ilmiga oid asarlardan namunalar.
6. Arab va fors tillari fonetikasining o'ziga xos xususiyatlari, tajvid va qiroat qoidalariga oid asarlardan matnlar.
7. Arab va fors tillaridagi qasida va g'azallardan namunalar.
8. Arab va fors tillaridagi hikoyatlaridan namunalar.
9. Imom Buxoriy, Termiziy hadislaridan namunalar o'qish, tarjima va tahlil qilish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq tilidagi matnni o'qib o'rganishning metod va usullari.
2. Sharq tilidagi matnni o'qib o'rganish va tarjima qilishda ilmiy hamda nufuzli lug'atlardan foydalanish prinsiplari.
3. Matnni o'qib, undagi polisemantizmlarni aniqlash; so'z ma'nolariga e'tibor qaratish.
4. Matnni morfologik jihatdan tahlil qilish.
5. Sharq tilidagi matnni sintaktik tahlil qilish.
6. Matn stilistikasi. Sharq tilidagi matnni o'qib, uning stilistik jihatlarini o'rganish.
7. Sharq tillarida o'tmishda yaratilgan rasmiy hujjatlar va ularni talqin qilish. Rasmiy hujjatlarning matn komponenti.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni tadqiqot qilish tavsiya etiladi.

**3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:

- Sharq tillaridagi mumtoz asarlarni tahlil etishning an'anaviy va zamonaviy usullari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***
- yozma yodgorliklarning tarkibiy qismlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- yozma yodgorliklar, mumtoz asarlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish, mumtoz matnlarni tahlil etish va talqin eta olishi;